



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**  
**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba**  
**nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)  
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)  
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.  
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.  
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.  
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.  
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.  
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.  
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.  
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.  
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.  
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.  
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.  
Turopova S.K. – f.f.d., dots.  
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots  
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).  
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).  
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)  
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).  
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.  
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)  
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.  
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.  
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)  
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.  
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.  
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.  
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.  
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.  
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)  
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).  
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA**

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

## **G.A. AXMETOVA**

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

## **S.R. BOYPO'LATOV**

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

## **M.SH. CHORIYEVA**

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

## **N.X. DO'SMUXAMEDOVA**

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

## **B.A. ERDANAYEV**

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari .....37

## **N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV**

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

## **M.X. KURBOSHEVA**

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

## **O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV**

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

## **SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA**

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

## **Z.M. NORALIYEVA**

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

## **A.P. PARDAYEV**

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

## **J.R. SAYFIYEV**

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

## **A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV**

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

## **B.E. TURAYEV**

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

## **Z.I. XAKIMOV**

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

## **N.A. XAKIMOVA**

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

## **SH.D. XAYDAROVA**

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

## **L.L. XAYRULLAYEVA**

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

## **Y.Z. XUDAYAROVA**

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

## **R.A. XURRAMOV**

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

## **G.A. YUSUPOV**

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....150

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

## **G'A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

## **Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

## **I.B.JURAEV**

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

## **D.A.BADALOV**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

## **F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV**

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

## **M.O.BEGALIYEVA**

Pattakesar.....257

“Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi” tayanch doktoranti  
Nurafshon shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i  
**Sayfiyev Jasur Ravshanovich**  
E-mail: sayfiyevjasur@gmail.com

### AGILE TRANSFORMATSIIYA JARAYONIDAGI KUTILAYOTGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

#### ANNOTATSIIYA

Ushbu maqolada Agile transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Agile metodologiyasi korporativ va davlat tashkilotlarida biznes jarayonlarni raqamli transformatsiya qilish va samaradorlikni oshirishda samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonda xodimlarning o'zgarishga qarshiligi, yetarli malaka va Agile bilimlarining yetishmasligi, boshqaruv tizimlarining moslashuvchan emasligi va kommunikatsiya muammolari kabi qiyinchiliklar uchraydi. Ushbu maqolada qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun xodimlarni Agile bo'yicha muntazam o'qitish va treninglar tashkil etish, transformatsiyani bosqichma-bosqich joriy etish, moslashuvchan boshqaruv tizimlarini yaratish va samarali kommunikatsiya platformalarini joriy etish kabi yechimlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tizimli yondashuv va oldindan rejalashtirish orqali Agile transformatsiyasidagi muammolarni minimallashtirish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Agile transformatsiya, biznes jarayonlar, qiyinchiliklar, boshqaruv tizimi, kommunikatsiya, raqamli transformatsiya, xodimlarni o'qitish, moslashuvchanlik.

### АГИЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ТРАНСФОРМАЦИИ: ОЖИДАЕМЫЕ ТРУДНОСТИ И СПОСОБЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются основные трудности, возникающие в процессе Agile-трансформации, а также пути их преодоления. Agile-методология широко применяется как эффективный инструмент цифровой трансформации бизнес-процессов и повышения эффективности в корпоративных и государственных организациях. Вместе с тем в ходе данного процесса возникают такие проблемы, как сопротивление сотрудников изменениям, недостаточный уровень квалификации и знаний в области Agile, негибкость систем управления и коммуникационные трудности. В статье предложены решения по преодолению данных проблем, включая регулярное обучение и тренинги сотрудников по Agile, поэтапное внедрение трансформации, создание гибких систем управления и внедрение эффективных коммуникационных платформ. Результаты исследования показывают, что при системном подходе и предварительном планировании возможно минимизировать проблемы, возникающие в процессе Agile-трансформации.

**Ключевые слова:** Agile-трансформация, бизнес-процессы, трудности, система управления, коммуникация, цифровая трансформация, обучение персонала, гибкость.

### AGILE TRANSFORMATION PROCESS: EXPECTED CHALLENGES AND WAYS TO OVERCOME THEM

#### ABSTRACT

This article analyzes the main challenges that arise in the Agile transformation process and the ways to overcome them. Agile methodology is widely used as an effective tool for digital transformation of business processes and improving efficiency in corporate and public sector organizations. At the same time, this process faces challenges such as employees' resistance to change, lack of sufficient skills and Agile knowledge, inflexible management systems, and communication problems. The article proposes solutions to overcome these challenges, including regular Agile training and capacity-building programs for employees, step-by-step implementation of transformation, development of flexible management systems, and introduction of effective communication platforms. The research results show that Agile

transformation challenges can be minimized through a systematic approach and proactive planning.

**Keywords:** Agile transformation, business processes, challenges, management system, communication, digital transformation, employee training, flexibility.

### KIRISH

Zamonaviy korxonalar va tashkilotlar doimiy ravishda tezkor o'zgarishlarga va raqobat sharoitlariga moslashishga majbur. Shu nuqtai nazardan, Agile transformatsiyasi – bu tashkilot ichidagi jarayonlarni moslashuvchan, tezkor va samarali boshqarish imkonini beruvchi yondashuvdir. Agile metodologiyasi dastlab dasturiy ta'minot ishlab chiqishda qo'llanilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim va davlat boshqaruvi kabi turli sohalarda muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Agile transformatsiyasi tashkilotlarga loyiha jarayonlarini yaxshilash, xodimlarning ijodiy salohiyatini oshirish va mijoz ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini beradi.

Agile transformatsiyasini amalga oshirish jarayoni ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ularning eng muhimlari – tashkilot madaniyati bilan bog'liq muammolar, xodimlarning qarshiligi, kommunikatsiya yetishmovchiligi, malaka va tajriba yetishmovchiligi, shuningdek, texnologik infratuzilmaning Agile jarayoniga mos kelmasligi. Shuningdek, transformatsiya jarayoni vaqt va resurs talab qiladi, bu esa korxonada faoliyatiga vaqtinchalik salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, Agile transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkilotlar strategik rejalashtirish, xodimlar tayyorgarligi va samarali kommunikatsiya tizimlariga alohida e'tibor berishlari zarur [1-3].

Ushbu maqolada Agile transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tizimli ravishda tahlil qilinadi va ularni bartaraf etishning amaliy yo'llari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, maqolada global va mahalliy tajribalar, shuningdek ilmiy tadqiqotlar asosida Agile metodologiyasini samarali joriy etishning strategik jihatlari ko'rib chiqiladi [4]. Tadqiqotning asosiy maqsadi – tashkilotlarda Agile transformatsiyasini amalga oshirish jarayonidagi asosiy to'siqlarni aniqlash va ularni minimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Shu nuqtai nazardan, maqola nafaqat nazariy asoslarni, balki amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi, bu esa korxonada va tashkilotlarga Agile transformatsiyasini muvaffaqiyatli rejalashtirish va amalga oshirishda ko'mak beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Agile

transformatsiyasi bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon tashkilotlar uchun nafaqat texnologik, balki madaniy va boshqaruv jihatidan murakkab muammolarni yuzaga keltiradi. A.H. Alaraj [1] bank sohasida Agile metodologiyasini tatbiq etishdagi qiyinchiliklarni tahlil qilib, xodimlarning qarshiligi va tashkilot madaniyati bilan bog'liq muammolar eng katta to'siq ekanligini aniqlaydi. Shu bilan birga, B. Leech va R. Hanslo [2] Agile va gibrid loyihalarni boshqarish metodologiyalarining rivojlanishi va qo'llanilishida yuzaga keladigan to'siqlarni tizimli ravishda yoritadi.

K. Conboy va N. Carroll [3] katta miqyosdagi Agile frameworklarni joriy qilishdagi muammolar va tavsiyalarni ko'rsatib, tashkilotning resurslar, rahbar qo'llab-quvvatlashi va jarayonlarni bosqichma-bosqich tatbiq etishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ko'i Akrofi va boshqalar [4] IT loyihalarni boshqarishning afzalliklari va cheklovlarini adabiyotlar asosida tahlil qilib, Agile metodologiyasining muvaffaqiyatiga inson va texnologik resurslarning bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

I. Chkhaidze [5] Agile joriy etishda muammolar va strategiyalarni amaliy jihatdan tahlil qilib, o'zgaruvchan ish sharoitida tashkilotlarni moslashuvchanlikka undaydi. C. Dikert va boshqalar [6] esa katta tashkilotlarda Agile transformatsiyasining muvaffaqiyat omillari va qiyinchiliklarini tizimli adabiyotlar sharhi orqali aniqlaydi, bu esa korxonada va davlat idoralarida metodologiyani joriy etishda ko'mak beradi.

D.B. Pacheco Cubillos va boshqalar [7] Agile tashkilot tuzilmalari va kontingensiya nazariyasi asosida transformatsiya jarayonlarini tahlil qiladi. Bu yondashuv, xususan, moliya sektori uchun Agile strategiyasini rejalashtirishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Systems [8] maqolasi raqamli transformatsiya loyihalarida Agile muvaffaqiyat omillarini ko'rsatadi va kompleks transformatsiyani amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

S. Batti, A.M. Mappisabbi. N. Natsir [9] post-pandemiya davrida Agile boshqaruvni tatbiq etish va tashkilot samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qiladi. Chita va hamkasblari [10] esa Activity Theory yondashuvi orqali Agile joriy etishda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni

aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Agile transformatsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun inson resurslari, tashkilot madaniyati, rahbar qo'llab-quvvatlashi, kommunikatsiya va texnologik infratuzilma bir vaqtda hisobga olinishi kerak. Shu bilan birga, pilot loyihalar, treninglar, mentorlik tizimi va amaliy tavsiyalarni tatbiq etish jarayonni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda Agile transformatsiyasini amalga oshirish jarayonidagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash uchun sifat va miqdoriy tadqiqot metodlari birlashtirilgan. Avvalo, mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, amaliy tajribalar va global konsultatsiya kompaniyalarining hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali Agile metodologiyasining turli sohalarida qo'llanilishi, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz transformatsiya misollari, shuningdek, jarayondagi asosiy to'siqlar va ularni bartaraf etish strategiyalari aniqlangan.

10 ta turli sohadagi (IT, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi) korxonalar va tashkilotlarda Agile transformatsiyasi bo'yicha intervyu va so'rovnomalarda o'tkazildi. Ushbu so'rovnomalarda xodimlar, rahbarlar va loyiha menejerlari ishtirok etib, Agile jarayonidagi qiyinchiliklar, xodimlarning qarshiligi, kommunikatsiya muammolari va resurs yetishmovchiligi kabi masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirganlar. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli transformatsiya strategiyalari, o'quv dasturlari va mentorlik tizimlari bilan bog'liq amaliy tajribalar ham yig'ildi.

Sifatli ma'lumotlar tematik tahlil asosida guruhlandi, asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari identifikatsiya qilindi. Miqdoriy ma'lumotlar esa statistik usullar yordamida analiz qilinib, qiyinchiliklarning chastotasi va ularning Agile jarayoniga ta'siri baholandi.

Shuningdek, maqolada case-study metodidan foydalanildi. Tanlangan tashkilotlarning Agile transformatsiyasi jarayonidagi real holatlari tahlil qilinib, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tajribalar solishtirildi. Shu yo'l bilan maqola nafaqat nazariy, balki amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi.

Natijada, metodologiya kombinatsiyasi –

adabiyotlar tahlili, so'rovnomalarda, intervyu va case-study – Agile transformatsiyasidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot metodologiyasiga asosan Agile transformatsiyasidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqildi:

1-jadval

**Agile transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari**

No	Qiyinchiliklar	Ta'siri	Bartaraf etish yo'llari
1	Tashkilot madaniyati bilan moslashmaslik	Xodimlarning qarshiligi, jarayonlar sekinlashadi	Madaniy o'zgarishlarni bosqichma-bosqich joriy etish, trening va seminarlar
2	Xodimlarning Agile bo'yicha yetarli tajribasi yo'qligi	Samaradorlikning pasayishi, jarayonlarning noto'g'ri bajarilishi	Mentorlik tizimi, o'quv dasturlari, tajriba almashish
3	Kommunikatsiya va hamkorlik yetishmovchiligi	Loyihalar kechikadi, jamoa ish samarasi pasayadi	Ichki kommunikatsiya kanallarini kuchaytirish, muntazam uchrashuvlar
4	Texnologik infratuzilmaning yetishmasligi	Agile jarayoni samarali ishlamaydi	Zarur dasturiy vositalar va platformalarni joriy etish
5	Resurs va vaqt cheklavlari	Transformatsiya sekinlashadi, loyiha narxi oshadi	Resurslarni strategik rejalashtirish, prioritetlarni aniqlash
6	Rahbarlarning to'liq qo'llab-quvvatlamasligi	Xodimlar motivatsiyasi pasayadi, jarayon to'xtashi mumkin	Rahbarlarni Agile metodologiyasi bo'yicha o'qitish, qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish
7	Agile metodologiyasining noto'g'ri tatbiqi	Loyihalar muvaffaqiyatsiz bo'ladi	Pilot loyihalar orqali sinov, eng yaxshi amaliyotlarni tatbiq etish

Ushbu jadval ko'rsatib turibdiki, Agile transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar ko'proq inson resurslari, madaniyat va kommunikatsiya bilan bog'liq. Tashkilot madaniyati va rahbarlarning yetarli qo'llab-quvvatlamasligi xodimlarning motivatsiyasiga sezilarli ta'sir qiladi, bu esa jarayonning samaradorligini pasaytiradi. Shu bilan birga, texnologik infratuzilma va resurs yetishmovchiligi ham jarayonni sekinlashtiradi, biroq ularni rejalashtirish va investitsiya orqali qisman bartaraf etish mumkin.

Bartaraf etish yo'llari esa o'quv dasturlari, mentorlik tizimi, ichki kommunikatsiya va pilot loyihalar orqali amalga oshiriladi. Shu orqali xodimlarning bilim va malakasi oshadi, jarayonlarni tezlashtirish va muvaffaqiyatli transformatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Agile transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks yondashuv zarur: inson resurslari, texnologik infratuzilma va

rahbarlar qo'llab-quvvatlashi bir vaqtda hisobga olinishi kerak.

Agile transformatsiyasi jarayonida tashkilotlar turli qiyinchiliklarga duch keladi. Eng asosiy muammolar inson resurslari, tashkilot madaniyati, kommunikatsiya va texnologik infratuzilma bilan bog'liq. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilganidek, xodimlarning yetarli malaka va Agile tajribasiga ega emasligi jarayon samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu sababli, mentorlik tizimi va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tashkilot madaniyati bilan moslashmaslik esa eng katta to'siqlardan biri sifatida aniqlangan. Xodimlar va rahbarlar Agile printsiplarini tushunmasligi yoki qadrlamasligi jarayonni sekinlashtiradi, qarshilik va motivatsiya pasayishiga olib keladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun tashkilot ichidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich joriy etish, trening va seminarlar orqali xodimlarni tayyorlash samarali strategiya hisoblanadi. Shu bilan birga, rahbarlarni Agile metodologiyasi bo'yicha o'qitish va ularning jarayonga faol qo'llab-quvvatlashini ta'minlash ham muhimdir.


Kommunikatsiya va hamkorlik yetishmovchiligi ham transformatsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, muntazam jamoaviy uchrashuvlar, ichki kommunikatsiya kanallarini kuchaytirish va loyiha jamoalari o'rtasida bilim almashish tizimlarini joriy etish jarayon samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada emasligi ham Agile jarayonini to'liq amalga oshirishga xalaqit beradi. Bu masalani yechish uchun zamonaviy dasturiy vositalar va platformalarni joriy etish, texnologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhimdir [8,9].

Resurs va vaqt cheklovlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Transformatsiya jarayoni ko'pincha loyihalarning kechikishi va xarajatlarning oshishiga sabab bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, resurslarni strategik rejalashtirish, prioritetlarni aniqlash va bosqichma-bosqich implementatsiya jarayonini olib borish jarayonni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, Agile metodologiyasining noto'g'ri tatbiqi loyihalarning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keladi. Shu sababli, pilot loyihalarni amalga oshirish va eng yaxshi amaliyotlarni identifikatsiya qilish jarayonni soddalashtiradi

va xatoliklarni kamaytiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kompleks yondashuv – inson resurslari, texnologik infratuzilma, rahbarlar qo'llab-quvvatlashi va tashkilot madaniyati bir vaqtda hisobga olinsa, Agile transformatsiyasi muvaffaqiyatli bo'ladi.

Umuman olganda, maqola natijalari Agile transformatsiyasining muvaffaqiyati tashkilotning ichki va tashqi resurslari, madaniyati, kommunikatsiyasi va rahbarlar yondashuvi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa korxonalar va tashkilotlar uchun transformatsiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda nazariy va amaliy ko'rsatmalar beradi [9, 10].



1-rasm. Agile transformatsiyasi jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar va ularning uchrash chastotasi .

1-rasmdagi diagramma "Agile transformatsiyasi jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar va ularning uchrash chastotasi" nomi bilan taqdim etilgan bo'lib, u tashkilotlar Agile jarayonida duch keladigan eng muhim to'siqlarni vizual tarzda ko'rsatadi. Eng yuqori qiymat – tashkilot madaniyati bilan moslashmaslik (85%). Bu shuni anglatadiki, xodimlar va rahbarlar Agile printsiplarini qabul qilmasligi yoki qadrlamasligi jarayonni sekinlashtiradi va qarshilik yuzaga keltiradi. Ushbu omilni bartaraf etish uchun tashkilot ichida madaniy o'zgarishlarni bosqichma-bosqich joriy etish, trening va seminarlar orqali xodimlarni tayyorlash zarur. Ikkinchi o'rinda – xodimlarning yetarli Agile tajribasi yo'qligi (70%). Bu jarayon samaradorligini pasaytiradi va loyihalarni noto'g'ri boshqarish xavfini oshiradi. Shu sababli, mentorlik tizimi va o'quv dasturlarini joriy etish orqali xodimlarning bilim va malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Kommunikatsiya va hamkorlik yetishmovchiligi (65%) ham sezilarli darajada uchraydi. Loyihalarni

vaqtda bajarish va jamoa ish samaradorligini oshirish uchun muntazam uchrashuvlar, ichki kommunikatsiya kanallarini kuchaytirish va bilim almashish tizimlarini yo'lga qo'yish zarur. Texnologik infratuzilma yetishmasligi (60%) va resurs va vaqt cheklovlari (55%) jarayon samaradorligini pasaytiradigan muhim omillardir. Bu esa korxonalar va tashkilotlarni zamonaviy dasturiy vositalar, platformalar va strategik rejalashtirish bilan qo'llab-quvvatlashga majbur qiladi.

Rahbarlarning yetarli qo'llab-quvvatlamasligi (50%) ham jarayon muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlarning faol ishtiroki va motivatsiyasi xodimlarning jarayonga munosabati va transformatsiya muvaffaqiyatiga bevosita bog'liq.

Eng past foiz – Agile metodologiyasining noto'g'ri tatbiqi (45%), ya'ni jarayonning samarasiz qo'llanilishi. Shu bilan birga, pilot loyihalar va eng yaxshi amaliyotlarni tatbiq etish orqali ushbu xavfni minimallashtirish mumkin. Diagramma tahlilidan ko'rinib turibdiki, Agile transformatsiyasida inson omillari – xodimlar, rahbarlar va tashkilot madaniyati eng katta rol o'ynaydi. Texnologik va resurs muammolari ham ahamiyatga ega, ammo ular ko'pincha moddiy va strategik choralar bilan bartaraf etilishi mumkin. Diagramma shuningdek, Agile jarayonida ustuvor yo'nalishlarni belgilash va resurslarni to'g'ri taqsimlashda korxonalar va tashkilotlar uchun strategik yo'l-yo'riq beradi.

Natijada, diagramma Agile transformatsiyasi muvaffaqiyatining inson resurslari, kommunikatsiya, rahbar qo'llab-quvvatlashi va tashkilot madaniyati bilan bevosita bog'liqligini ilmiy tarzda tasdiqlaydi. Shu asosda, tashkilotlar uchun kompleks yondashuv va rejalashtirilgan o'zgarishlar jarayonini amalga oshirish zarur.

**Xulosa.** Ushbu maqolada Agile transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni samarali bartaraf etish yo'llari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Agile metodologiyasini joriy etish nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki tashkilot madaniyati, boshqaruv tizimi va inson resurslari bilan bog'liq chuqur o'zgarishlarni ham talab etadi. Xodimlarning o'zgarishlarga qarshiligi, Agile bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi, boshqaruv tizimlarining moslashuvchan emasligi hamda kommunikatsiya muammolari transformatsiya jarayonining samaradorligini pasaytiruvchi

asosiy omillar sifatida aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xodimlar uchun muntazam trening va o'quv dasturlarini tashkil etish, rahbarlarning transformatsiya jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash, moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda samarali kommunikatsiya platformalarini rivojlantirish Agile transformatsiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oldindan rejalashtirish, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni belgilash orqali Agile transformatsiyasi bilan bog'liq xavf va muammolarni minimallashtirish mumkinligini ko'rsatdi. Umuman olganda, maqola xulosalari Agile metodologiyasini korporativ va davlat tashkilotlarida joriy etishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi hamda samarali va barqaror raqamli transformatsiyani ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni taklif etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Alaraj A.H. Challenges of Implementing Agile Methodology in the Jordanian Banking Sector. *European Scientific Journal, ESJ*, 21(10), 2025, 146–158.
2. Leech, B., Hanslo R. The Evolution of Agile and Hybrid Project Management Methodologies: A Systematic Literature Review. 2025.
3. Conboy K., Carroll N. Implementing Large-Scale Agile Frameworks: Challenges and Recommendations. 2019.
4. Koi Akrofi G.Y., Koi Akrofi J., Matey H. A.. Understanding The Characteristics, Benefits And Challenges Of Agile IT Project Management: A Literature Based Perspective. 2019.
5. Chkhaidze I. Reasons, Challenges and Strategies for Implementing Agile in Today's Unpredictable Environment. *Innovative Economics and Management*, 10(2), 2023, 72–86.
6. Dikert C., Paasivaara M., Lassenius C. Challenges and Success Factors for Large Scale Agile Transformations: A Systematic Literature Review. *Journal of Systems and Software*, 119, 2016, 87–108.
7. Pacheco Cubillos D.B., Boria Reverter J., Gil Lafuente J. Transitioning to Agile Organizational Structures: A Contingency Theory Approach in the Financial Sector. *Systems*, 12(4), 2024, 142.
8. Systems. Critical Success Factors in Agile Based Digital Transformation Projects, 13(8), 2025, 694.